“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



Kibermakonda davlat suvereniteti va sun’iy intellektni tartibga solish: xalqaro-huquqiy muammolar va istiqbollar

Zarina Azizova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistranti
e-mail: zarinaazizova694@gmail.com

Аннотация. Mazkur ilmiy maqolada kibermakonda davlat suverenitetini ta’minlash va sun’iy intellektni xalqaro miqyosda tartibga solish bilan bog‘liq dolzarb huquqiy muammolar tahlil etiladi. Maqolada kibermakonning transchegaraviy xususiyati, yurisdiksiya muammolari hamda davlatlarning “raqamli suverenitet”ni ta’minlashga qaratilgan siyosatlari yoritilgan. Shu bilan birga sun’iy intellektning keng qo‘llanilishi natijasida yuzaga kelayotgan xavf-xatarlar, jumladan, ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmik diskriminatsiya va javobgarlik masalalari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT va Yevropa ittifoqi doirasidagi tashabbuslar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida kibermakon va sun’iy intellektni samarali tartibga solish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, yagona huquqiy standartlarni ishlab chiqish va milliy qonunchiliklarni uyg‘unlashtirish zarurligi asoslab beriladi.

Калит сўзлар. Kibermakon, davlat suvereniteti, raqamli suverenitet, sun’iy intellekt, xalqaro huquq, kiberxavfsizlik, yurisdiksiya muammolari, transchegaraviy ma’lumotlar, algoritmik diskriminatsiya

Аннотация. В данной научной статье анализируются актуальные правовые вопросы, связанные с обеспечением государственного суверенитета в киберпространстве и регулированием искусственного интеллекта на международном уровне. Исследование обосновывает необходимость укрепления международного сотрудничества, разработки единых правовых стандартов и гармонизации национального законодательства.

Ключевые слова. киберпространство, государственный суверенитет, цифровой суверенитет, искусственный интеллект, международное право, кибербезопасность, трансграничные данные, алгоритмическая дискриминация.

Annotation. This scientific article analyzes the current legal issues related to ensuring state sovereignty in cyberspace and regulating artificial intelligence at the international level. As a result of the rapid development of

digital technologies, the traditional concept of state sovereignty has acquired a new meaning, and its application in cyberspace is becoming more complicated. The article highlights the cross-border nature of cyberspace, jurisdictional issues, and policies of states aimed at ensuring “digital sovereignty”. At the same time, it examines the risks arising from the widespread use of artificial intelligence, including data security, algorithmic discrimination, and liability. Initiatives within international organizations, in particular the United Nations and the European Union, are analyzed.

Keywords. Cyberspace, state sovereignty, digital sovereignty, artificial intelligence, international law, cybersecurity, jurisdictional issues, cross-border data, algorithmic discrimination.

Kirish

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining deyarli barcha sohalari raqamlashtirilmoqda. Shu jarayonda kibermakon global ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning muhim maydoniga aylanib, davlatlar faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq kibermakonning o‘ziga xos xususiyatlari – uning transchegaraviyligi, markazlashmaganligi va tezkor rivojlanishi – an’anaviy xalqaro-huquqiy normalarning samaradorligini sezilarli darajada murakkablashtirmoqda.

Ayniqsa, davlat suvereniteti masalasi kibermakon sharoitida yangicha mazmun kasb etmoqda. An’anaviy yondashuvlarga ko‘ra, suverenitet davlat hududi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa, kibermakonda hududiy chegaralarning aniq belgilab bo‘lmasligi ushbu prinsipni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu sababli ko‘plab davlatlar “raqamli suverenitet” tushunchasini ilgari surib, milliy axborot makonini nazorat qilishga intilmoqda.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi ham xalqaro huquq oldiga yangi chaqiriqlarni qo‘ymoqda. Sun’iy intellektning iqtisodiyot, xavfsizlik va boshqaruv sohalarida qo‘llanilishi uning samaradorligini oshirayotgan bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq xavf-xatarlar – ma’lumotlar xavfsizligi, inson huquqlarining buzilishi, algoritmik diskriminatsiya va javobgarlik masalalari – dolzarb muammolar sifatida yuzaga chiqmoqda.

Hozirgi vaqtda BMT, YUNESKO hamda Yevropa ittifoqi kabi xalqaro tuzilmalar tomonidan mazkur yo‘nalishda muayyan tashabbuslar ilgari surilayotgan bo‘lsa-da, sun’iy intellekt va kibermakonni tartibga soluvchi yagona va majburiy xalqaro-huquqiy mexanizm hali shakllanmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi kibermakonda davlat suverenitetini ta’minlash va sun’iy intellektni tartibga solish bilan bog‘liq xalqaro-huquqiy muammolarni kompleks tahlil qilish hamda ularni hal etishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Kibermakonda davlat suvereniteti va sun’iy intellektni tartibga solish masalalari so‘nggi yillarda xalqaro-huquqiy adabiyotlarda keng o‘rganilmoqda. Ushbu yo‘nalishda bir qator fundamental va amaliy ahamiyatga ega ilmiy manbalarni alohida ta’kidlash mumkin.

Kibermakonda xalqaro huquq va suverenitet nazariyasi yo‘nalishidagi eng fundamental manba – NATOning Ilg‘or kiber mudofaa bo‘yicha hamkorlik markazi (NATO Cooperative Cyber Defence Centre of Excellence) tomonidan tayyorlangan “Kiberoperatsiyalarga nisbatan qo‘llaniladigan xalqaro huquq bo‘yicha Tallin qo‘llanmasi 2.0” (Tallinn Manual 2.0 on the International Law Applicable to Cyber Operations (Schmitt, 2017)) hisoblanadi. Ushbu qo‘llanmada 19 nafar xalqaro huquq mutaxassisi ishtirokida kibermakonda suverenitet, yurisdiksiya, davlat mas’uliyati va kuch ishlatmaslik prinsiplarining qo‘llanishi batafsil tahlil qilingan. Qo‘llanma majburiy kuchga ega bo‘lmasa-da, u xalqaro huquq doktrinasida keng e’tirof etilgan.

Michael N. Schmittning tadqiqotlari kiberhujumlarni xalqaro humanitar huquq prizmasidan baholashda muhim nazariy asos yaratgan. Schmitt kiberhujumni “qurolli hujum” deb e’tirof etish mezonlarini ishlab chiqqan bo‘lib, uning “effects-based approach” metodologiyasi hozirga qadar keng qo‘llaniladi.

Sun’iy intellektni tartibga solish sohasida Stuart Russell va Peter Norvig (“Artificial Intelligence: A Modern Approach”, 2020) SI nazariyasining fundamental asarida texnologiyaning rivojlanish yo‘nalishlari va jamiyatga ta'siri batafsil yoritilgan. YUNESKO tomonidan 2021-yilda qabul qilingan “Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence” hujjati SI etikasiga oid birinchi global miqyosdagi hujjat bo‘lib, inson qadr-qimmati, shaffoflik, javobgarlik va xavfsizlik tamoyillarini belgilaydi. Biroq uning tavsiyaviy xususiyati uni samarali mexanizmdan mahrum etishini ko‘plab tadqiqotchilar, jumladan Joanna Bryson (2019) ta’kidlaydi.

Yevropa ittifoqining AI Act (2024) SI tizimlarini xavf darajasiga qarab to‘rt toifaga ajratadi. Philipp Hacker va boshqalar (2020) ushbu yondashuvning afzalliklarini ko‘rib chiqib, “risk-based approach”ning innovatsiyani to‘sqinlik qilmasligi bilan xavfsizlikni ta’minlash o‘rtasidagi muvozanatni topishda samarali ekanini asoslab beradi.

Umuman olganda mavjud ilmiy adabiyotlar va xalqaro hujjatlar kibermakon va sun’iy intellektni tartibga solish bo‘yicha muhim nazariy asos yaratgan bo‘lsa-da, amaliy jihatdan yagona va majburiy xalqaro-huquqiy tizim hali shakllanmagan. Bu esa ushbu yo‘nalishda yanada chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Taqqoslama-huquqiy tahlil usuli yordamida kibermakonda suverenitetni tartibga solishga oid turli davlatlar (Xitoy, AQSh, Yevropa ittifoqi a’zo davlatlari) va xalqaro tashkilotlarning yondashuvlari o‘zaro taqqoslangan. Ushbu metod milliy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qonunchiliklar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlashga imkon beradi. Normativ-huquqiy tahlil metodidan foydalangan holda xalqaro shartnomalar, BMT rezolyutsiyalari, Tallinn Manual 2.0 hamda EU AI Act loyihasi kabi me’yoriy hujjatlar mazmun-mohiyati jihatidan o‘rganilgan va ularning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari baholangan. Tizimli tahlil usuli orqali kibermakon, davlat suvereniteti va sun’iy intellekt kabi tushunchalar o‘zaro bog‘liqlikda, yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqilgan.

Tahlil va natijalar

Klassik xalqaro huquqda suverenitet davlatning o‘z hududi ustidan mutlaq nazoratini anglatadi. Biroq kibermakon ushbu an’anaviy tushunchani tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Kibermakon infratuzilmasi ko‘p hollarda xususiy kompaniyalar qo‘lida bo‘lib, davlat chegaralari bilan mos kelmaydigan global tarmoqlarni tashkil etadi. Bu esa suverenitetni amalda ta’minlashni sezilarli murakkablashtiradi.

Tallinn Manual 2.0 kibermakonda ham suverenitet prinsipining amal qilishini tasdiqlaydi. Biroq uning qo‘llanilishida ikkita asosiy muammo mavjud. Birinchisi – hududiy bog‘liqlik masalasi: davlat o‘z hududidagi serverlar va tarmoq infratuzilmasi ustidan nazoratga ega bo‘lsa-da, ma’lumotlar zudlik bilan chegaradan chiqib ketishi mumkin. Ikkinchisi – atribusiya muammosi: kiberhujumning manbasini aniqlab, uni muayyan davlatga nisbatlash texnik jihatdan murakkab bo‘lib qolmoqda.

Amaliyotda davlatlar “raqamli suverenitet”ni ta’minlashning turli modellarini qo‘llaydi. Xitoyning “Great Firewall” tizimi va “internet sovereignty” doktrinasi tartibga solishning markazlashgan modelini ifodalaydi. Yevropa ittifoqi esa GDPR orqali ma’lumotlarni himoya qilishning huquqiy modelini yaratib, uni "texnologik suverenitet"ning asosi sifatida ko‘radi. AQSh esa an’anaviy ravishda bozor mexanizmlariga tayanib, minimal davlat aralashuvi yondashuvini ustuvor biladi. Ushbu uch model o‘rtasidagi tub farqlar yagona xalqaro standart ishlab chiqishni qiyinlashtirmoqda.

Transchegaraviy ma’lumotlar oqimi masalasi ayniqsa keskin muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yevropa ittifoqining GDPR va Xitoyning Data Security Law qonunlari ushbu ziddiyatning huquqiy ifodasidir. Schrems II qaroriga ko‘ra, EU va AQSh o‘rtasidagi ma’lumotlar uzatish mexanizmi bekor qilinib, transchegaraviy ma’lumotlar almashuvida huquqiy noaniqlik yanada chuqurlashdi. Google, Meta, Amazon kabi korporatsiyalarning ortib borayotgan ta’siri esa davlat suvereniteti va xususiy sektor huquqlari o‘rtasida yangi ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Sun’iy intellektning keng joriy etilishi xalqaro huquq oldiga bir qator yangi chaqiriqlarni qo‘ymoqda. Algoritmik javobgarlik masalasida SI tizimlari qaror qabul qilganda kim javobgar ekanligi aniq belgilanmagan. Masalan, avtonom qurol tizimi noto‘g‘ri nishonga zarba berganda, davlatmi, ishlab chiqaruvchi kompaniyami yoki harbiy ofitsermi javob berishi lozimligi noaniqligi saqlanib qolmoqda. Virginia Eubanksning tadqiqotlari algoritmik

diskriminatsiyaning amaliy misollarini ko‘rsatib, huquq-tartibot va moliyaviy xizmatlarda jiddiy inson huquqlari buzilishlariga olib kelishi mumkinligini asoslab bergan. Bundan tashqari, Huawei va TikTok atrofidagi bahs-munozaralar SI tizimlarining ma’lumotlar xavfsizligi va josuslik sohasidagi geosiyosiy o'lchamini ochib beradi.

Hozirgi vaqtda xalqaro miqyosda qabul qilingan asosiy hujjatlar tavsiyaviy xarakterga ega. BMT GGE hisobotlari (2013, 2015, 2021) kibermakonda davlatlarning mas’uliyatli xulq-atvoriga oid me’yorlarni belgilagan bo‘lsa-da, ularning ijrosi ixtiyoriy. Yevropa ittifoqining AI Act hujjati ushbu sohadagi eng yaxlit huquqiy hujjat sifatida e’tirof etiladi, biroq uning hududiy chegaralanishi global muammolarni hal etish uchun yetarli emas.

Muhokama

Tadqiqot davomida erishilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kibermakon va sun’iy intellektni tartibga solish sohasidagi muammolar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni alohida-alohida hal etish mumkin emas. Ushbu ikki soha kesishgan nuqtada – ya’ni SI texnologiyalarining kibermakon orqali amalga oshirilishi jarayonida – eng jiddiy huquqiy bo'shliqlar namoyon bo‘lmoqda.

Raqamli suverenitet modellarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, na to‘liq markazlashgan (Xitoy modeli), na to‘liq bozorga asoslangan (AQSh modeli) yondashuv universal yechim bo‘la olmaydi. Yevropa ittifoqining huquqiy asosga tayangan modeli ko‘proq davlatlar uchun maqbul namuna sifatida namoyon bo‘lmoqda, biroq u rivojlanayotgan davlatlarning texnologik imkoniyatlari va manfaatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi.

Algoritmik javobgarlik masalasida mavjud xalqaro huquq normalari amalda qo‘llanishga tayyor emasligini tahlil tasdiqladi. Avtonom tizimlar tomonidan yetkazilgan zararni mavjud mas’uliyat doktrinasi doirasida hal etish qiyin, chunki an’anaviy huquq “qaror qabul qiluvchi” sifatida inson omilini nazarda tutadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Xalqaro miqyosda, birinchidan, BMT doirasida kibermakon va SI masalalarini qamrab oluvchi majburiy xalqaro konventsiya ishlab chiqish zarur. Bunday konventsiya davlatlarning kibermakondagi mas’uliyatini, transchegaraviy ma’lumotlar almashuvining huquqiy tartibini va SI tizimlariga qo‘yiladigan minimal xavfsizlik talablarini belgilashi lozim. Ikkinchidan, SI sohasida xalqaro nazorat organi – xuddi IAEA yadroviy soha uchun bajargan vazifaga o‘xshab – tuzilishi maqsadga muvofiq. Milliy miqyosda esa O‘zbekiston uchun axborot xavfsizligi qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, SI texnologiyalarini tartibga soluvchi maxsus qonun qabul qilish va kiberxavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Xulosa

Mazkur tadqiqot kibermakonda davlat suvereniteti va sun’iy intellektni xalqaro miqyosda tartibga solish bilan bog‘liq huquqiy muammolarni kompleks tahlil qildi. Kibermakonning

transchegaraviy xususiyati an’anaviy suverenitet tushunchasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. “Raqamli suverenitet” tushunchasi nafaqat hududiy nazorat, balki ma’lumotlar, infratuzilma va texnologiyalar ustidan huquqiy nazoratni ham qamrab olishi zarur.

Sun’iy intellektni tartibga solishda yagona va majburiy xalqaro mexanizm hali shakllanmagan. YUNESKO tavsiyalari va EU AI Act muhim qadam bo‘lsa-da, global miqyosda majburiy kuchga ega hujjatning yo‘qligi jiddiy huquqiy bo‘shliq yaratmoqda.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, yagona huquqiy standartlarni ishlab chiqish va milliy qonunchiliklarni uyg‘unlashtirish bugungi kunda eng muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Kelajakda SI tizimlarining harbiy sohadagi qo‘llanishi, kvant hisoblashning kiberxavfsizlikka ta’siri kabi yangi yo‘nalishlarni o‘rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BMT General Assembly Resolution 73/27 “Developments in the field of information and telecommunications in the context of international security” (2018).

2. BMT General Assembly Resolution 76/19 “Advancing responsible State behaviour in cyberspace in the context of international security” (2021).

3. YUNESKO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: YUNESKO, 2021.

4. European Union. Regulation (EU) 2016/679 – General Data Protection Regulation (GDPR). Official Journal of the European Union, 2016.

5. European Union. Artificial Intelligence Act (Regulation EU 2024/1689). Official Journal of the European Union, 2024.

6. European Union. Network and Information Security Directive (NIS2 Directive). Official Journal of the European Union, 2022.

7. Council of Europe. Budapest Convention on Cybercrime. European Treaty Series No. 185, 2001.

8. Schmitt, M.N. (ed.) Tallinn Manual 2.0 on the International Law Applicable to Cyber Operations. Cambridge: Cambridge University Press, 2017.

9. Schmitt, M.N. Cyber Operations and the Jus in Bello: Key Issues. International Law Studies. Vol. 87, 2011. P. 89-110.

10. Goldsmith, J., Wu, T. Who Controls the Internet? Illusions of a Borderless World. Oxford: Oxford University Press, 2006.

11. Mueller, M. Will the Internet Fragment? Sovereignty, Globalization and Cyberspace. Cambridge: Polity Press, 2017.

12. Russell, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. New Jersey: Pearson, 2020.

13. Bryson, J. The Past Decade and Future of AI's Impact on Society. Towards a New Enlightenment: A Transcendent Decade. BBVA, 2019. P. 127-149.

14. Eubanks, V. Automating Inequality: How High-Tech Tools Profile, Police, and Punish the Poor. New York: St. Martin's Press,

2018.

15. Hacker, P., Krestel, R., Grundmann, S., Naumann, F. Explainable AI under Contract and Tort Law. Artificial Intelligence and Law. Vol. 28, 2020. P. 415-439.

16. Pasquale, F. The Black Box Society: The Secret Algorithms That Control Money and Information. Cambridge: Harvard University Press, 2015.

17. Koh, H.H. International Law in Cyberspace. Harvard International Law Journal Online. Vol. 54, 2012. P. 1-12.

18. Chander, A., Le, U.P. Data Nationalism. Emory Law Journal. Vol. 64, 2015. P. 677-739.

19. Maurer, T. Cyber Mercenaries: The State, Hackers, and Power. Cambridge: Cambridge University Press, 2018.

20. Lukashuk, I.I. Mezhdunarodnoe pravo. Obshchaya chast. Moskva: Volters Kluver, 2005.

21. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2022-yil 15-aprel, 764-son.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2021-yil 28-aprel, PF-6229-son.

23. BMT Group of Governmental Experts. Report on Developments in the Field of Information and Telecommunications. A/70/174. 2015.

24. OECD. Recommendation of the Council on Artificial Intelligence. OECD/LEGAL/0449. Paris: OECD, 2019.